

**FARG’ONA ILMIY TADQIQODCHI OLIMLARI
(ABDULHAMID ANORBOYEV TALQINIDA)****Zohidova Mohidil***Namangan davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg’ona ilmiy tadqiqodchi olimlari va arxeolog olim Abdulhamid Anorboyev haqida, uning arxeologiya faniga qo’shgan xissasi, olib borgan arxeologik tadqiqodlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Arxeologiya, arxeologik yodgorlik, Hvaqand, ekspeditsiya, obyekt, Axsikent, Mo’yi muborak, To’raqo’rg’on.

Аннотация: В этой статье рассказывается об археологический исследованиях, проведенных Ферганским ученым-исследователем и археологом Абдулхамид Анорбоев, его вкладе в археологическую науку.

Ключевое слово: Археология, археологический памятник, Хваканд, экспедиция, объект, Ахсикент, Мўйи Муборак, Тўрақўрғон.

Abstract: This article will talk about the research scientist and archeologist Abdulhamid Anorboyev, his contribution to the science of Archaeology, the archeological research he carried out.

Keywords: Archaeology, Archaeological monument, Hwaqand, expedition, object, Axsikent, Mo’yi Muborak, To’raqo’rg’on.

Farg’ona vodiysi Markaziy Osiyodagi eng madaniy vohalardan biri hisoblanadi. Farg’ona vodiysi Sirdaryoning yuqori qismida joylashgan Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog’ tizmalari bilan o’ralgan. Farg’ona vodiysi tabiiy boyliklarning ko’pligi va xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Farg’ona vodiysini bejiz “O’zbekiston gavhari” deya ta’riflanmagan. Farg’ona qadimiy Sog’d, Baqtriya, Xorazm kabi mustaqil davlat sifatida shakllangan.

Farg’ona vodiysi O’rta Osiyoning qadimdan insonlar tomonidan o’zlashtirilib kelingan hududlardan biri hisoblanadi. Shu sababli Farg’ona vodiysida juda ham ko’plab arxeologik yodgorliklar mavjud va ular hozirga qadar saqlanib qolgan. Ana shunday yodgorliklarni topib o’rganishda arxeolog olimlarimizning xizmatlari beqiyos.

Farg’ona vodiysi arxeolog olimlari sirasiga Ahmadali Asqarov, Abdulhamid Anorboyev, Boqijon Matboboyev, Muhammadjon Isomiddinov, Baxtiyor Abdullayev, Mutalib Hasanov va Namangan davlat universiteti katta o’qituvchisi Shukrullo Nasriddinov kabilar kiradi. Mazkur olimlar uzoq yillardan buyon arxeologiya sohasida ishlar olib bormoqdalar va shu ishlar asosida ko’plab arxeologik yodgorliklarni o’rganishgan.

Ana shunday arxeologik olimlardan biri Abdulhamid Anorboyev hisoblanadi. Arxeolog olim Abdulhamid Anorboyev 1947-yil 3-martda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati Aravon tumani Chekobod qishlog'ida tavallud topgan. "Anorboyev birinchilardan bo'lib Qadimgi O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi va ilk urbanizatsiya mazkazlari borasida izlanishlarni amalga oshirgan. Buning natijasida Farg'ona vodiysidagi ilk dehqonchilik izlari adir vohalariga to'g'ri kelishi ma'lum bo'lgan"¹. Shu kungacha Abdulhamid Anorboyev "Axsikent arxeologiyasi obyektni o'rganish va muhofaza qilish masalasiga doir", "Yana bir bor Farg'ona shaharlarining lokalizatsiyasi va ular bilan bog'liq ba'zi baxsli masalalar", "Farg'ona ibtidoiy tarixidagi yetishmayotgan bo'g'in" va boshqa maqolalar muallifi hisoblanadi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi professori Abdulhamid Anorboyev 3000 yillik tarixga ega Axsikent yodgorligida 40 yildan beri izlanishlar va arxeologik qazish ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar, va shu Axsikent yodgorligiga oid "Axsikent arxeologiya parki" nomli kitob-albomi nashrdan chiqdi. Mazkur asar 3 ta tilda nashrdan chiqqan bo'lib, unda nafaqat Axsikent to'g'risida, balki butun Farg'ona vodiysi shaharlari, ulardagi madaniyat, davlatchiligi, Farg'ona vodiysining Markaziy Osiyoda tutgan ro'li, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi. Axsikentni o'rganish natijasida o'ziga xos arxeologik maktab yaratildi. Hozirda Axsikentning 24 ta obyektida qazuv ishlari olib borilmoqda. Kelajakda Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish rejaga qo'yilgan.

"Anorboyevning keyingi yillardagi keng ko'lamlil ilmiy tadqiqodlari tufayli O'zbekistonda ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlariga aniqlik kiritildi. Miloddan avvalgi XII-XI asrlarda Baqtriya, So'g'd, Farg'ona va Xorazmda ba'zi bir davriy farqlanish bilan, davlatchilikning ilk ko'rinishlari shakllanganligi hamda miloddan avvalgi IX-VII asrlarga kelib yuqoriga nomlari keltirilgan kichik davlatlar asosida dastlab Baqtriya, keyinchalik esa So'g'd, Farg'ona va Xorazmda ilk markazlashgan hududiy davlatlar shakllanganligi ma'lum bo'lgan"². Shuningdek A.Anorboyevning ilmiy faoliyatida Farg'ona tarixi va arxeologiyasi muhim o'rin egallaydi. Bu haqida bizga Anorboyevning "Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan ro'li" nomli kitobi ma'lumot beradi. Mazkur kitobda Farg'ona vodiysida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, poytaxt shaharlari va ularning tarixiy topografiyasi, hududiy shaharlari va ularning topografiyasi haqida ma'lumotlar kengaytirilib berilgan.

Anorboyev o'rgangan yana bir topografik joy Qo'qon hisoblanadi. "Qo'qon yozma manbalarda "Hvaqand", "Huvaqand" nomlari bilan mashhur. Miloddan avvalgi I asrning oxiri va milodiy I asrda Qo'qon shahriga asos solinadi. Mazkur hududda

¹ Анарбаев А. Максудов Ф. Древний Маргилан. – Т.: 2007

² А. А. Anorboyev. O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilish tarixidagi ba'zi bir muammolar // O'zbekiston tarixi. -2004. –B. 3-14

izlanishlar natijasida topilgan sopol buyumlar kulolchilik charxida tayyorlanga bo'lib, o'zining yuqori sifati bilan ajralib turadi. Sopol buyumlarning tashqi tomoniga ishlangan har xil bezaklar qadimgi qo'qonlilar haqida qo'qonlilar haqida qiziqarli ma'lumotlarni bergan"³. Anorboyev Qo'qondagi Mo'yi Muborak va Tepaqo'rg'on yodgorliklari o'rganishida boshchilik qilgan.

“A.Anorboyev 2007-yilda Marg'ilon shahrini yoshini aniqlashda faol qatnashgan va bu borada 1 ta risola va ko'plab maqolalar yaratgan. 2013-2014 yillarda Anorboyev boshchiligida ekspeditsiya Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi arxeologik yodgorliklar ro'yxatini shakllantirishgan. Bu tadqiqod davomida 177 ta arxeologik yodgorlik aniqlangan bo'lib, bulardan 153 tasi 1979-yil N. Gorbunovning xaritasida qayd etilgan . Qolganlari 20 tasi esa keying yillarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqodlar davomida aniqlangan. Anorboyev Farg'ona shahrining qadimiy tarixiga oid 1 ta monografiya, 1 ta oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr ettirgan"⁴. Anorboyev qariyb 55 yillik ilmiy faoliyati davomida 30 dan ortiq xorijiy davlatlarda chiqargan arxeologiya va tarixga oid jurnal va to'plamlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mana shunday arxeologik olimlar xizmatlari uchun O'zbekistonda arxeologiya fani yildan yilga taraqqiy etib bormoqda. O'zbekistonni necha-necha ming yillik tarixi ana shunday arxeologik tadqiqodlar natijasida aniqlangan. Arxeologik ekspeditsiyalar natijasida yurtimizdan turli xil osori-atiqalar to'plangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анарбаев А. Максудов Ф. Древний Маргилан. –Т.: 2007
2. Anorboyev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilish tarixidagi ba'zi bir muammolar // O'zbekiston tarixi. - 2004. B. 3-14
3. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va Markaziy Osiyoda tutgan o'rni. – Т.: “Nashr”, 2022.
4. Анарбаев А. Ахсикент - столица древней Ферганы. Т.: 2013
5. Анарбаев А. Максудов Ф. Древний Маргилан. – Т.: 2007
6. <http://www.slibrary.uz>
7. <http://academy.uz>

³ Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni. Т.: “Nashr”. 2022. B-123

⁴ Анарбаев А. Ахсикент-столица древней Ферганы. Т.: 2013.